

O'QISH DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'qish darslarida didaktik o'yinlar vositasida o'quvchilarni faollashtirish masalalari yoritiladi. Didaktik o'yinlar va ularning turli xususida na'lumot beriladi. Ayrim didaktik o'yinlarni amaliyotga tatbiq qilinishi yuzasidan uslubiy tavsiya beriladi.

Kalit so'zlar: o'qish darslari, didaktik o'yin, adabiy ertak, darslik, faollik, samaradorlik, muloqot.

ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР НА УРОКАХ ЧТЕНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы активизации учащихся на занятиях по чтению средствами дидактических игр. Приводятся дидактические игры и информация об их различных особенностях. Даны методические рекомендации по проведению некоторых дидактических игр.

Ключевые слова: уроки чтения, дидактическая игра, литературная сказка, учебник, активность, эффективность, общение.

SPECIFIC ASPECTS OF USING DIDACTIC GAMES IN READING LESSONS

Annotation. This article discusses the issues of activating students through didactic games in reading lessons. Information is provided on didactic games and their various features. Methodological recommendations are given on the practical application of certain didactic games.

Keywords: reading lessons, didactic game, literary tale, textbook, activity, effectiveness, communication.


O'qituvchilik kasbi har qanday jamiyat taraqqiyotida muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, pedagog vatanimiz istiqbolini belgilovchi yosh qalblar kamolotining me'mori sanaladi.

Ma'lumki, O'qish darslarida o'quvchilarni kichik hajmdagi badiiy asarlar, halq og'zaki ijodi namunalari bo'lmish ertaklar, qo'shiqlar va rivoyatlar bilan tanishtirish asnosida ta'lim oluvchilarda kitobxonlik madaniyati shakllanishi ustida ish olib boriladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni adabiy olamga olib kirish o'quvchilarda estetik didni, boy va ta'sirchan hissiyotni, nozik tuyg'ular, insoniylik, mehr-muruvvat, haqiqatgo'ylikni qaror toptirishda muhim o'rin tutadi. Bu davrdagi adabiy ta'lim o'quvchilarda hissiy ta'sirchanlik, tasavvur va sezgilar boyligi, ijodiy fantaziya, nutq ravonligi, o'qish texnikasi, kitobxonlik madaniyati singari sifatlar shakllanishiga yo'naltiriladi. Maktab ta'limi davomida shakllantirilgan bunday sifatlar safiga ta'limning keyingi bosqichida o'quvchining hayotiy tajribasi va darslikdagi asar matnidan chiqaradigan xulosalari ham qo'shiladi. Shu tariqa o'quvchi izchil ravishda kitob bilan mustaqil ishlashga, uqib o'qishga, aytilgan fikrlarni ilg'ay olishga, borliqni, insonni, uning tuyg'ulari olamini kuzatishga va tushunishga o'rgana boradi.

O'qish darslarida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar o'quvchilarning badiiy didini o'stiribgina qolmay, ta'lim oluvchilarda badiiy adabiyotlar va adabiy janrlarga bo'lgan qiziqishni shakllantiradi hamda o'quv mashg'ulotlari davomidagi faolligini oshiradi.

Dars mashg'ulotlarida ta'limiy o'yinlardan foydalanish natijasida kichik maktab yoshidagi o'quvchilar hali o'zlari uchun asosiy faoliyat turi sifatida saqlanib qolgan "o'yin"larni nihoyatda maroq bilan bajarishadi. Darsning turli bosqichlarida o'yin elementlarining olib kirilishi asnosida bolaning kundalik hayotida orttirgan ko'nikma va malakalari u yoki bu ko'rinishda ishga tushar ekan, bola o'zini juda yengil sezadi, erkin harakat qiladi, bir oz hordiq chiqaradi, yangi sharoitga oson moslashadi, yuzaga kelgan ruhiy zo'rqiqlar baratrafi qilinadi.

O'yin faoliyati orqali bolalarda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:



Ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishish omili sifatida dars mashg'ulotlari mobaynida o'qituvchi va ta'lim oluvchilarining o'zaro ochiq muloqoti va ishonchi muhitida samarali bo'lishini ta'kidlash mumkin. Ta'lim jarayonida qo'llanadigan o'yinlar qisqa vaqtga mo'ljallangan bo'lib, guruh bo'lib mashq qilishga odatlantiradi, oldindan tayyorgarlikni talab etmaydi. O'yinlar vaqtida kichik guruhlar faolligi ortadi, ta'lim ishtirokchilarining diqqati berilgan topshiriq yoki vazifaga to'liq jalb etiladi. O'yinlar vositasida o'quvchilarga yangi bilimlar berish, ko'nikma hosil qilish, kichik guruhlar a'zolarining ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirish mumkin. O'yinlarni darsning kirish yoki yakunlovchi qismida o'tkazish maqsadga muvofiq. O'yinlarni maqsadiga ko'ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Guruh bo'lib ishlashga mo'ljallangan o'yinlar:
 - ishtirokchilarning o'zaro tanishishlariga yordam beradi;
 - guruh bo'lib hamkorlikda ishlash istagini yaratadi;
 - ishtirokchilarning o'zini erkin his etishlarini ta'minlaydi, ruhiy zo'rqiqlarni bartaraf etadi.
2. Guruhning birligini ta'minlovchi, qo'llab-quvvatlovchi harakatlarga undovchi o'yinlar:
 - o'zaro munosabat me'yorlarini o'rnatishga yordam beradi;
 - qoidalarga rioya etish asnosida huquqiy tarbiya berishda xizmat qiladi;
 - guruhning birligini, jipsligini mustahkamlashga yo'naltirilgan bo'ladi.
3. O'zaro mavzular va bosqichlarni bog'lovchi o'yinlar:
 - bir mavzudan ikkinchi mavzuga yengillik va oson yo'l bilan o'tishni ta'minlaydi;
 - turli tushunchalarni o'zaro bog'lash uchun xizmat qiladi.
4. Rag'batlantiruvchi o'yinlar:
 - guruh bo'lib ishlashga rag'batlantiradi;
 - murakkab mavzularni muhokama qilishga yordam beradi;

- dars davomida "nafasni rostlab", ishni davom ettirishga yordam beradi.

5. Ijodkorlikni rag'batlantiruvchi o'yinlar:

- dunyoga boshqacha ko'z bilan qarash, ta'limda innovatsion metodlarni qo'llashga yordam beradi;

- o'yin qatnashchilari o'zlarining yangi qirralarini kashf etadilar, yangilikni qabul qilish ko'nikmasini hosil qiladilar.

6. Yakunlovchi o'yinlar:

- katta mavzular, bob yoki bo'limni o'rganishni yakunlash, egallangan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi;

- ta'limning innovatsion metodlarini baholash va unga munosabat bildirishga o'rgatadi.

2-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan "O'qish savodxonligi" darsligining VII bobi "Ertaklarning sehrli olamidan bahra olamiz!" deb nomlanadi. Ushbu bo'limdan joy olgan Anvar Obidjonning "O'rmondagi ziyofat" adabiy ertagi bilan tanishtirish asnosida o'quvchilarni hayvonot olami va ularning xususiyatlari, oziqlanishi bilan tanishtiramiz. Adabiy ertakda o'rmon qiroli - sher yovvoyi va xonaki hayvonlar uchun oshxona ochadi. Ertakda uy va yovvoyi hayvonlarga o'z xususiyati va tabiatdagi roliga ko'ra oshxonadagi turlicha yumushlar taqsimlangan. Ertakda Bo'rivoy o't qalovchi, quyon oshpaz, yumronqoziq ovqat masalliqclarini tayyorlovchi, tabiatan baquvvat kuchli ho'kiz bobo qorovul, echki esa ofitsiant sifatida keltiriladi. Ertak matnini o'qituvchi ifodali o'qib bergach, o'quvchilarni yanada faollashtirish va sinfdagi ortiqcha zo'riqishni bartaraf etish maqsadida quyidagi didaktik o'yinni tavsiya qilamiz.

"Kim nima tanovvul qiladi?" didaktik o'yini

Ushbu didaktik o'yindan foydalanish uchun dastavval o'qituvchi o'ziga xos tarzda tayyorgarlik ko'radi. Bunda adabiy ertakdagi tog'-u qishloq, yaylov va o'rmondan kelgan hayvonlar va ularning buyurtma taomlari alohida-alohida tarqatmalarga yoziladi. Masalan:

qaynoq kakao va tovuq – tulki

Beda - qo'zi

Yong'oq - olmaxon

Chirik oshqovoq - to'ng'iz

Kunjara, somon - buzoqcha

Suvilon - kirpi

Suli - ot

Baqa - begemot

Xashak - fil



O'quvchilar tezkorlik bilan ertakda keltirilgan tartibda hayvonlar va ularning taomlarini topishga harakat qilishadi. Ushbu didaktik o'yinni bir vaqtning o'zida bir nechta kichik guruhda qo'llash mumkin.

Natijada o'quvchilardagi tezkorlik va xotira rivojlanishi bilan birga ertak matnini qulay va oson usulda o'zlashtirishga erishilinadi.

Keling, e'tiborni adabiy ertakning eng so'nggi bandiga qaratamiz.


"Toshbaqa ham uzoqda

Ko'rindi, ana.

Afsuski, u kelguncha

Bekik oshxona".

O'quvchilardan toshbaqaning kechikish sababi so'ralib, qo'shimcha topshiriq sifatida toshbaqaga xos bo'lgan va bo'lmagan xususiyatlar va jihatlarni aniqlash so'raladi. Bunda o'quvchilar Toshbaqaga mos bo'lgan xususiyatlarni bir tarafga ajratib olibgina qolmasdan, mos bo'lmagan javoblarni "savatcha"ga joylashtirishadi.



Yuqorida qayd qilingan ta'limiy o'yinlar o'qish darslarida o'quvchilarning mavzuni tez va oson anglay olishlari bilan bir qatorda yosh avlodni har tomonlama kamol topishida samarali ta'sir ko'rsatadi. O'yin vaqtida bolaning sezgirligi va faolligi, aqlu idroki, chaqonligi-yu uddaburonligi, xotira va diqqatli bo'lish singari bir qator jihatlari takomillasha boradi.

Aksariyat bolalar biror bir vazifa ustida o'z diqqatini jamlay olmaydi, matnlarni o'qishga qiynaladi. Ayniqsa uzunroq va kattaroq hajmli matnlarni o'qish ba'zi o'quvchilarni qiziqitirmaydi yoki og'irlik tug'diradi. Yuqorida biz tavsiya qilayotgan didaktik o'yinlar bolani ortiqcha zo'riqishdan xalos qilgan holda anglab o'qish va o'qilganni xotirada qayta tiklashga o'rgatadi. Bolada sekin-asta dars mashg'ulotlariga qiziqish va faollik orta boshlaydi, kitobxonlik madaniyati va matnni tahlil qilish ko'nikmasi rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.U.B.Aydarova va boshqalar .O'qish savodxonligi, 4-sinf, II qism. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik/T-2023

2.I.Raximova. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarni ijodiy mustaqillika o'rgatish. Xalq ta'limi -2022 yil